

**SHARQ VA G'ARB MUSIQIY OLIMLARINING RITM VA USUL  
HAQIDA NAZARIY YONDASHUVLARI**

*O'zbekiston davlat konservatoriyasi*

*“Kompozitorlik va cholg'ulashtirish kafedrası ”*

*2-bosqich magistranti **Omonjonova Odinaxon***

*Ilmiy rahbar: Professor **Tursunova X.A***

*@odinaomonjonovagmail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ritm va usul tushunchalarining nazariy hamda amaliy mohiyati Sharq va G'arb musiqiy tafakkuri doirasida qiyosiy tahlil qilinadi. Ritm musiqaning vaqt omiliga asoslangan fundamental kategoriyasi sifatida talqin etilib, uning etimologik ildizlari qadimgi yunon tafakkuriga borib taqalishi ko'rsatib o'tiladi. Qadimgi yunon olimlari, xususan, Aristoksen tomonidan ritm vaqtning tartibli bo'linishi va harakatning muvozanatli takrorlanishi sifatida izohlanganligi ta'kidlanadi. G'arb musiqasida ritmning yozma notatsiya, qat'iy metr tizimi hamda kompozitsion tuzilma bilan bog'liqligi va dramatik ifoda vositasi sifatida namoyon bo'lishi tahlil etiladi. Sharq musiqasida esa ritm tushunchasi “usul” va “iyqo” kategoriyalari orqali kengroq mazmunda yoritiladi. Iyqo nazariyasi o'rta asr musulmon Sharqi musiqa ilmining muhim qismi sifatida Abu Nasr Forobiy asarlarida ilmiy asoslab berilganligi qayd etiladi. Unda iyqo musiqiy vaqt o'lchovi va ritmik tuzilmaning nazariy negizi sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, Ibn Sino va Safiyuddin Urmaviy kabi olimlar tomonidan usul va ritmning estetik hamda ruhiy jihatlari rivojlantirilgani yoritiladi. Maqolada Sharq musiqa an'analari usulning nafaqat zarb ketma-ketligi, balki ma'lum hissiy-ruhiy holatni ifodalovchi tsiklik tuzilma ekani, xususan, Shashmaqom tizimida usullarning kompozitsion va badiiy ahamiyati ochib beriladi. Xulosa sifatida ritm va usul har ikki musiqiy madaniyatda vaqt va harakatni estetik tashkil etuvchi asosiy omillar bo'lsa-da, G'arbda ular ko'proq metrik-kompozitsion mezon sifatida, Sharqda esa falsafiy-estetik va marosimiy

mazmun bilan uyg'un holda namoyon bo'lishi asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar :** Ritm, usul, iyqo, metr, Sharq musiqasi, G'arb musiqasi, ilmi iyqo, musiqiy vaqt, maqom, Shashmaqom, Forobiy, Aristoksen, ritmik tuzilma, zarb, davriy sikl.

**Kirish:** Ritm va usul musiqaning eng asosiy tashkil etuvchi unsurlaridan bo'lib, ular vaqt omilini san'at darajasida tartibga soluvchi tushunchalardir. Har ikki atama mazmunan o'xshash bo'lsa-da, Sharq va G'arb musiqiy an'alarida ularning talqini, tizimlashtirilishi hamda amaliy qo'llanilishi bir-biridan farq qiladi. Yevropa musiqasida ritm har bir zarba va o'lchov asosida qat'iy yozma notatsiya orqali ifodalanadi. Barokko davridan boshlab ritmik tuzilmalarning murakkablashuvi, poliritmiya va sinkopal tuzilmalar keng qo'llanilgan. Klassik va romantik davrlarda esa ritm dramatik ifoda vositasi sifatida kuchli ahamiyat kasb etdi. Masalan, L. Betxovenning simfoniylarida ritmik struktura asarning g'oyaviy mazmunini ifodalovchi asosiy vositaga aylanadi. XX asrda esa I. Stravinskiy, B. Bartok, S. Prokofyev kabi kompozitorlar ritmik erkinlik va xalq musiqasidan olingan notekis o'lchovlarga tayanib, ritmni yangi darajada talqin etdilar.

Sharq musiqa tizimida usul tushunchasi ritmga o'xshash bo'lsa-da, mazmun jihatdan kengroqdir. U nafaqat zarbalar ketma-ketligi, balki ularning falsafiy, estetik va emotsional mazmunini ham ifodalaydi. Sharq, xususan, O'rta Osiyo, Eron, Turkiya, Hindiston musiqiy an'alarida usul — bu zarblarning takrorlanib turuvchi, lekin ma'lum hissiy holatni ifodalovchi tsiklik tuzilma hisoblanadi. Masalan, o'zbek musiqa merosidagi usullar — saraxbor, talqin, tasnif, tarje', gardun, muxammas, saqil, ufar, nasr kabi shakllarda uchraydi. Ularning har biri ma'lum bir tuyg'u, kayfiyat yoki janr (masalan, raqs, marosim, doston) bilan bog'liqdir. Sharq musiqasida usul og'zaki an'ana asosida avloddan avlodga o'tgan, ijro jarayonida o'zgaruvchan va ijrochining mahoratiga bog'liq bo'lgan tizimdir. Bu jihatdan u G'arbdagi qat'iy metr tizimidan farq qiladi.

Musiqqa ifoda vositalaridan biri bo'lgan ritm kuyning ichki tayanchi va harakatlantiruvchi omili hisoblanadi. Har qanday musiqiy asar vaqt ichida kechadigan hodisa bo'lgani sababli, uning shakllanishi va idrok etilishi bevosita ritmik tashkilotga bog'liqdir. Shu ma'noda ritm nafaqat musiqaning tarkibiy elementi, balki uning mavjudlik sharti sifatida ham namoyon bo'ladi.

**Asosiy qism:** Ritm tushunchasi musiqashunoslik doirasidan ancha keng bo'lib, u turli fan va sohalarda qo'llaniladi. Atamaning etimologik ildizi yunoncha “ῥυθμός” (rhythmos) so'ziga borib taqaladi va “oqim”, “harakat”, “tartibli siljish” ma'nolarini anglatadi. Keng ma'noda ritm — bu vaqt ichida sodir bo'ladigan har qanday jarayonning muayyan tartib asosida oqimidir. Masalan, hayot ritmi, yurak urishi ritmi, nafas olish jarayoni, tabiatdagi fasllar almashinuvi yoki mehnat jarayonidagi harakatlar takroriyliigi — bularning barchasi ritm tushunchasining umumiy ko'rinishlaridir. Demak, ritm inson hayoti va borliqning deyarli barcha jabhalarida namoyon bo'ladigan universal hodisadir. Ritm nazariyasining ilmiy asoslari qadimgi yunon tafakkuriga borib taqaladi. Ritm haqidagi dastlabki tizimli ta'limotni yaratgan mutafakkir sifatida qadimgi yunon faylasufi va musiqashunos olimi Aristoksen tilga olinadi. U ritmni vaqtning tartibli bo'linishi va harakatning muvozanatli takrorlanishi sifatida talqin qilgan. Aristoksen qarashlarida ritm tovushlarning mexanik ketma-ketligi emas, balki eshituv orqali idrok etiladigan tirik jarayon sifatida tushuntiriladi. Bu yondashuv keyingi musiqiy-estetik qarashlarning shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Umumiy falsafiy talqinda ritm — tabiiy hodisa va jarayonlarning muayyan vaqt davomida takrorlanib turishidir. Bu jarayon ikki asosiy ko'rinishda namoyon bo'ladi: siklli va vaqtli. Hodisa va jarayonlarning tabiatda ma'lum davriylik asosida takrorlanishi sikllilik deb yuritiladi. Masalan, sutka almashinuvi, fasllarning ketma-ketligi yoki biologik jarayonlarning muntazamligi siklli ritmga misol bo'la oladi. Vaqtli ritm esa muayyan vaqt oralig'ida sodir bo'ladigan tartibli harakat yoki o'zgarish jarayonini anglatadi.

Ritm orqali musiqiy material muayyan tartibga solinadi, tovushlar o'rtasidagi nisbatlar muvozanatlanadi va asarning ichki dinamikasi yuzaga keladi. Agar ohang

musiqaning “mazmuniy chizig‘i” bo‘lsa, ritm uning “harakat mexanizmi”dir. Ritm bo‘lmagan taqdirda musiqiy tovushlar tartibsiz ketma-ketlikka aylanib, badiiy yaxlitlik yo‘qoladi. Shunday qilib, ritm musiqaning fundamental kategoriyalaridan biri bo‘lib, u vaqt va harakatning estetik tashkil topgan shaklini ifodalaydi. U nafaqat musiqaning ichki tuzilishini belgilaydi, balki inson idrokida musiqiy jarayonning yaxlit va mantiqli qabul qilinishini ham ta’minlaydi. G‘arbda ritmning nazariy asoslari qadimgi yunon faylasuflari Aristotel, Platon, Aristoksenlarning asarlarida uchraydi. Ular musiqada ritmni harakatning o‘lchovli ifodasi deb ta’riflaganlar. Keyinchalik J. Filipp Ramo, G. Riman, B. Asafyev, V. Bobrov, V. Xolopova kabi nazariyotchilar ritmni musiqaning vaqt bo‘yicha tashkil etuvchi, strukturaviy va semantik birlik sifatida izohladilar. Masalan, V. N. Xolopova ritmni *“musiqiy fikrning shakliy va mazmuniy rivojini boshqaruvchi ichki energiya”* deb talqin etadi. B. Asafyev esa ritmni *“intonatsion harakatning dinamik shakli”* deb ko‘rsatgan. Unga ko‘ra, ritm — bu musiqaning yashovchan nafasidir.

Har bir kuyning o‘ziga xos ritmik tuzilishi bo‘ladi.

Tor ma’noda ritm musiqada nota cho‘zimlarining uzun-qisqaligini ifodalaydi. Ritmik bo‘linishning asosiy turi ikkilikdir Ritmik tuzilish tovush davomiyligining ketma-ketligidir. Musiqada ritmik bo‘linishning maxsus turlari ham qo‘llaniladi - davomiyligni 2 ga emas, balki teng qismlarning ixtiyoriy soniga bo‘lish - uchta (triol), besh (kintol), olti (seksol), yetti (septol) va hk.

Ritmik bo‘linishning ikki yoki undan ortiq turlarining ketma-ket kombinatsiyasi (masalan, duolet va tripletlar birikmasi) poliritm deb ataladi. Musiqiy ritm inson tabiatiga kuchli ta’sir o‘tkazadi. Qo‘shiqlar, raqslar, marshlar va shu kabi janrlar, asoson, ritm va usulga tayanadi.

Sharq nazariyasida musiqa ilmining ikkita asosiy yo‘nalishi mavjud bo‘lib, bulardan birinchisi – ilmi iyqodir. Iyqo tushunchasi kuyning ichki ritmik tuzilishini belgilovchi markaziy kategoriya hisoblanadi. Musiqiy harakat va vaqt o‘lchamining nazariy asosi sifatida iyqo Sharq musiqashunosligi manbalarida ko‘plab izohlangan. Shu bilan birga, uning ildizi qadimgi Yunon musiqiy va falsafiy ta’limotiga borib taqaladi.

Iyqo (arab. – tuzmoq, sozlamq, belgilamoq) – O'rta asr musulmon Sharqi musiqa ilmining asosiy tushunchalaridan biri. Maxsus atama sifatida aruz va musiqa ilmining asoschisi hisoblanmish Xalil ibn Ahmadning (768-y.da vafot etgan) “Kitobul iyqo” va “Kitobunnag'am” asarlarida ilk bor qo'llanganligi taxmin qilinadi. Qadimiy risolalarda iyqo atamasining 10 dan ortiq ta'riflari keltiriladi. Shulardan asosiylari: 1) musiqiy harakat (intiqol)ning vaqt (yoki izchillik, takroriylik) jihatidan namoyon bo'lishi; 2) musiqiy vaqt o'lchami, faraz qilinuvchi eng kichik zamon birligi (“miqyol ul-avval”, Forobiy). Ushbu ma'noda zamonaviy G'arb musiqa ilmidagi metr va Sharq aruz nazariyasidagi vazn tushunchalariga mos keladi; 3) musiqiy vaqt o'lchamlarining sifat ko'rsatgichi, ya'ni turli o'lcham (metr)larning o'zaro nisbatlari, musiqiy ritm tushunchasiga mos keladi. Agar “iyqo-metr” musiqiy vaqt jarayonini nazariy anglashning dastlabki bosqichi bo'lsa, “iyqo-ritm” ushbu ilmiy mavhumlashtirishning oliy darajasidir.

Ilmi iyqo (arab. – iyqo haqidagi ilm) – ilmi musiqiyning tarkibiy qismi. Yaxlit va tugal nazariya sifatida Abu Nasr Forobiyning asarlari (“Kitobul musiqa al-kabir”, “Kitobul iyqo'ot”, “Kitob fi ixsoul iyqoot” va b.)da ilk marotaba ilmiy asoslab berilgan va keyinchalik, Ibn Sino (“Kitob ash-shifo”) va Qutbiddin ash-Sheroziy (“Durratut-Toj”) risolalarida rivojlantirilgan.

Forobiy sharq musiqashunosligida iyqoni vaqt o'lchami sifatida talqin qiladi. U yozadi:

“Biror narsani o'lchash uning jismoniy tabiatiga bog'liq: uzunlik uzunlik bilan, sath sath bilan, vaqt vaqt bilan o'lchanadi. Iyqo esa vaqtning o'lchov birligi bo'lib, uning tarkibiy qismi musiqiy nag'ma va niqralar orqali amalga oshiriladi. Eng kichik vaqt birligi esa cho'zilish va qisqartirish orqali yig'indiga aylanadi.”

Shuningdek, Forobiy iyqoning eng kichik birliklarini aniqlashda she'riy va musiqiy o'lchamlarni bog'lagan. Masalan, u eng kichik vaqt birliklarini bir nechta naqarotlar yig'indisi orqali hosil bo'ladigan cheklangan vaqt deb belgilaydi. Shu tarzda iyqo nafaqat eng kichik vaqt birligi sifatida, balki ularning kombinatsiyasidan hosil bo'lgan ritmik tuzilma sifatida ham talqin qilinadi.

Sharq musiqasida iyqo ikki jihatdan ahamiyatlidir:

1. Metr sifatida — kuyni tashkil qiluvchi vaqt o'lchamlari va ularning nisbatlari;
2. Ritm sifatida — ushbu vaqt birliklari orasidagi izchil va takroriy munosabatlar.

Agar “iyqo-metr” musiqiy jarayonning nazariy bosqichi bo'lsa, “iyqo-ritm” esa uni amaliy ijro shakliga aylantirishning ikkinchi bosqichi sifatida qoraladi. Shu bilan birga, iyqoning metr va ritmik xususiyatlari Sharq musiqasida ham, G'arb musiqiy nazariyasida ham umumiy mohiyatga ega: ular musiqiy harakatning izchilligi va oqimlilik xususiyatini belgilaydi. Forobiy nazariyasida iyqo — bu kuyning ichki vaqt o'lchami va ritmik tuzilishini birlashtiruvchi tushuncha bo'lib, u nafaqat Sharq mumtoz musiqasida, balki musiqiy estetik tafakkurda ham markaziy o'rin tutadi. Shu tariqa Sharq musiqasida iyqo ta'limoti metr va ritmni birlashtiruvchi nazariy asos sifatida qoraladi.

Ilmi iyqo ta'limotining asosiy unsuri — naqr (nuqta, eng kichik va bo'linmas zamon)dir. Davr tarkibidagi naqrlar soni va sifati jihatidan iyqolar ikki sinfga bo'linadi: muvassal (ulangan, uzluksiz) va mufassal (bo'lingan, ayrilma). Har bir sinf, o'z navbatida, bir necha turlardan iborat. X asr badiiy ijodiyotida qo'llanilgan jami ritmik shakllarni Forobiy 12 asl (usul)ga asoslangan yaxlit iyqolar tizimi sifatida bayon etgan. Mazkur 12 usullar musiqiy amaliyotda doimo yangicha badiiy estetik sifat (“vujud al-afzal”) darajasida namoyon bo'ladi. Iyqo usullariga turli ritmik, akustik, dinamik vositalar yordamida kerakli badiiy mazmun kiritish ma'dulot (tenglamalar) yoki tag'iyrot (o'zgartuvlar, almashtiruvlar) deb ataladi. Ilmi iyqoning ta'limoti Forobiy jahonda birinchi bo'lib ilgari surgan genial g'oya edi. Badiiy vaqt («al-on»)ning yaxlitligi haqidagi Forobiyning fikriga G'arbiy Yevropa olimlari XX asrning 2-yarmidagina (Klod Levi Stross, Susanna Langer va b.) yetib kelishdi va tan olishdi.

**Xulosa:** Sharq musiqa madaniyatida “usul” tushunchasi eng muhim nazariy va amaliy kategoriyalardan biri hisoblanadi. “Usul” arabcha so'z bo'lib, “asos”, “tartib”, “yo'l” degan ma'nolarni anglatadi. Musiqashunoslik nuqtayi nazaridan esa u *musiqaning ritmik-interval tizimini, vaqt bo'linmalarining ma'lum tartibda*

*tashkil topishini* ifodalaydi. Sharq musiqiy tafakkurida ritm — bu nafaqat vaqt o'lchovi, balki ruhiy holat, hissiy dinamikani ifodalovchi badiiy qonuniyat sifatida qaralgan. Masalan, qadimgi fors, arab, turk va markaziy osiyo musiqa tizimlarida “usul” deganda faqat zarb yoki o'lchov emas, balki musiqaning ichki yurish sur'ati, ruhiy holati, hatto xarakteri ham nazarda tutilgan. Sharq olimlari bu masalaga yanada falsafiy va ruhiy yondashuvni taklif qilganlar. Abu Nasr Farobiy “Kitob al-musiqa al-kabir” asarida usulni zarblarning muayyan tartibi emas, balki ruhiy muvozanat va his-tuyg'uning ifoda vositasi sifatida talqin qiladi. Safiyuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog'iy, Darvish Ali Changiy kabi nazariyotchilar esa usulni musiqiy janr, raqs yoki marosimning ichki ruhiyatiga mos vaqt o'lchovi sifatida tasvirlaydilar. Masalan, Marog'iy o'z risolalarida har bir usulning o'ziga xos zarb ketma-ketligi bilan birga, u bilan uyg'un kechuvchi hissiy holatni (masalan, quvonch, osoyishtalik, shijoat) ham ko'rsatadi. Markaziy Osiyo hududida esa “usul” tushunchasi maqom tizimi orqali yanada takomillashdi. “Shashmaqom”, “Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari”, “Xorazm maqomlari”da usullar o'ziga xos shakllarga ega bo'ldi. Shunday qilib, “usul” tushunchasi Sharq musiqasida ritmik, estetik va falsafiy mohiyat kasb etgan murakkab hodisa sifatida shakllangan.

Usul va ritm tushunchalari bir-biriga ma'no jihatidan qanchalik o'xshash bo'lmasin, ammo ba'zi elementar xossalari bilan bir-biridan farq qiladi.

Usul — doira va nog'oralarda ijro etiladigan zarb tuzilmalaridir. Ya'ni ostinato tarzida takrorlandigan ritm ko'rinishi bo'lib, sharq musiqasida doyra jo'rligida ijro etiladi. Mazkur kichik ritmik tuzilma sharq monodiyasida ifodaviy va kompozitsion jihatdan eng tugallagan asos sifatida gavydalanadi. Farobiy, Safiyuddin al-Urmaviy, ash-Sheroziy va boshqalarning musiqa risolalarida juda ko'p qadimiy usullar keltirilib, ular davri avsat, davri turkiy, davri ravon, davri asl, davri kabir, davri saqil, duyak, chorzarb, miatayn, ufar, zarbul fath, muxammas, hafif singari nomlar bilan atalgan. Demak, G'arbda ritm tushunchasi asosan metrik va kompozitsion tuzilmani anglatgan bo'lsa, Sharqda usul tushunchasi musiqaning asosi, barqarorligini ta'minovchi ritmik tuzilma bo'lib, falsafiy, his-tuyg'uviy va



marosimiy jihatlarini ham o'z ichiga olgan. Har ikkisi ham musiqaning vaqt, harakat va ifoda birligini tashkil etuvchi asosiy omillardir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abu Nasr Forobiy. Kitob al-iyqo'ot. – Qadimiy musiqa risolalari to'plami.
2. Safiyuddin Urmaviy. Kitab al-Advar. – Musiqa nazariyasiga oid risola.
3. Boris Asafyev. Muzikalnaya forma kak protsess. – Moskva: Muzgiz, 1930.
4. Valentina Kholopova. Teoriya muzykalnogo ritma. – Moskva: Kompozitor, 2000.
5. Shashmaqom. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, turli yillar.
6. Rajabov I. Maqom asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.